

UNWTONING SAMARQANDDA BO'LIB O'TGAN 25-SESSIYASI**Abduraxmonova Fotimaxon Dilmurod qizi****Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati
va Turizm fakulteti 1-bosqich talabasi
abduraxmonovafotimaxon@gmail.com****tel: (+998) 93-079-39-05****www.doi.org/10.5281/zenodo.10457311**

Annotatsiya: Ushbu maqola Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining Samarqandda bo'lib o'tgan 25-sessiyasida ko'rilgan mintaqadagi turizm sohasi bilan bog'liq bo'lgan muammolar, masalalar va unga berilgan bir qancha takliflar, Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ilgari surgan 7 ta taklifini bayon qiladi.

Kalit so'zlar: BMT, Global Xavfsiz Turizm kodeksi, yashil turizm, inklyuziv turizm infratuzilmasi, Xalqaro Turizm akademiyasi, UNWTO, COVID19.

Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) turizm sohasidagi yetakchi xalqaro tashkilot bo'lib, BMT tizimining ixtisoslashgan hukumarlararo muassasasi sifatida faolyat yuritadi. Tashkilot 158 ta ishtirokchi davlatni, 6 ta assotsiatsialashgan mintaqani, kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan ikkita mintaqani va 500 dan ortiq bo'linmali tashkilotlarni birlashtiradi. UNWTO 1975-yildan beri BMT nizomi asosida faolyat yuritib keladi va barqaror hamda qulay turizmni rivojlantirishga asoslangan tashkilot hisoblanadi. O'zbekiston 1993-yil 4-oktyabrdan sanasidan boshlab tashkilotning a'zosi bo'lib kelmoqda. Madridda 2021-yilning 2-dekabrida bo'lib o'tgan Bosh assambleyaning 24-sessiyasida ovoz berish natijalariga ko'ra Samarqand shahri navbatdagi Bosh assambleyaning sessiyasi o'tkaziladigan hudud sifatida Portugaliya va Misr mamlakatlari bilan raqobatda g'olib deb topildi. Bosh assambleya nufuzli tadbirlarining mamlakatimizda o'tkazilishi dunyo hamjamiyatining O'zbekistonga bo'lgan e'tiborini yanada kuchaytirdi. Bosh assambleya tadbirlariga Butunjahon turizm tashkilotiga a'zo davlatlarning ommaviy axborot vositalari va investorlari, Qolaversa, bir qancha turizm sohasi bo'yicha mutaxassislar tashrif buyurishdi va soha bo'yicha tajriba almashishdi. UNWTO Bosh assambleyasi sessiyasida 120dan ortiq yirik xorijiy investorlar hamda 500 dan ortiq yirik mahalliy kompaniyalar ham ishtirik etishdi. Yana bir diqqatga sazovor tadbir O'zbekistondagi turizm sohasi bo'yicha mutaxasis va kadrlar yetishtiruvchi va ularning malakasini oshiruvchi UNWTO Turizm akademiyasining taqdimotiga bag'ishlandi.



Ma'lumki so'ngi yillarda insoniyat ekologiya, atrof muhit bilan bog'liq bo'lgan turli muammolarga duch kelmoqda. Afsuski, bu muammolarni biz insoniyat oldida turgan, kelajagimiz uchun xavf tug'dira oladigan omillar sifatida ko'rishimiz mumkin. So'ngi yillarda, dunyoning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiga ta'sir etibgina qolmay, balki uni cheklab ham qo'ya olgan COVID 19 pandemiyasi ko'plab sohalarga ham o'z ta'sirini, xususan turizm sohasiga juda katta yo'qotish olib keldi. Minglab odamlar va dunyoning har bir chekkasidan tashrif buyurgan sayyohlar bilan to'lgan Parijdagi Luvr muzeyi, Eyfel minorasi, Istanbuldagi Sultan Ahmed va Aya Sofiya ibodatxonalari, Agradagi Boburiylar davri arxitekturasini noyob namunasi xisoblangan, XXI asrgacha saqlanib qolgan Tojmahal va birqancha boshqa turistik durdonalar bo'shab qolishiga ham COVID 19 pandemiyasi sabab bo'ldi. Albatta, oldimizda turgan muammolarni bartaraf qilish uchun birqancha ishlar olib borilmoqda. Xususan, Jahon bo'ylab yana turizm sohasini qaytadan yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun har 2 yilda bir o'tkaziladigan hozirgi kunda 150 dan ortiq davlatni o'z safida birlashtirgan butunjaxon turizm tashkilotining o'rnini beqiyos. Yurtimizda joriy yilning 16-20-oktyabr kunlari bo'lib o'tgan UNWTO Bosh assambleyasining 25-sessiyasi katta ro'l o'ynadi.

Bosh Assambleyaning Samarqand shahrida bo'lib o'tgan 25-sessiyasida BMT bosh kotibi Antoniu Guterrish shunday dedi: "Turizm taraqqiyot olib keladi. Jahon iqtisodiyotidagi eng yirik tarmoqlardan biri sifatida u madaniyatlar o'rtasida ko'priklarni o'tkazish, yangi imkoniyatlar yaratish va barqaror rivojlanishni rag'batlantirish uchun katta kuchga ega. Ammo turizmga o'zaro bog'liq global muammolar ham ta'sir ko'rsatadi. Bilaman, biz BMT ning Jahon sayyohlik tashkilotiga bu qarashni birgalikda va oldinga olib borish, odamlar va sayyora uchun yaxshiroq kelajak qurishga ishonishimiz mumkin." Bosh kotibning turizmni madaniyatlar o'rtasidagi ko'priklarni qurish ham beqiyos emas albatta. Qolaversa, Ochilish yalpi majlisi oldidan UNWTO Bosh kotibi Zurab Pololikashvili Muhtaram Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev tomonidan Samarqandda rasmiy kutib olindi hamda uning turizm sohasiga sarmoya kiritish darajasini oshirishdagi yetakchiligi, ta'lim va ish o'rinlarini qo'llab-

quvvatlashga e'tibor qaratganini yuqori baholadi. Shuningdek, Bosh assambleyani ochar ekan, janob Pololikashvili shunday dedi: "Ushbu Bosh Assambleya tashkilot sifatida turizm uchun muhim daqiqadir. Biz pandemiya bo'ronini yengib o'tdik va endi sohani uzoq muddatli o'zgartirishga erishish va global turizm uchun haqiqiy meros qoldirish imkoniyatiga egamiz."

Turizmning eng muhim haftaligi ochilishida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham delegatlarni qutladi. UNWTOning dunyoning barcha mintaqalarida turizmni jadal rivojlantirish va uni jahon iqtisodiyotining harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylantirish bo'yicha faol say-harakatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bilan o'rtoqlashdi.

Sessiya davomida keyingi yillarda soha rivoji uchun bir qancha takliflar berildi. Xususan, Ipak yo'lining mintaqadagi o'rni, ahamiyati, uning rivoji uchun ham takliflar ilgari surildi. Yevropa Komissiyasi a'zolari Komissiyasining 66-yig'ilishi chog'ida Yevropada turizm faolyatini rivojlantirish maqsadida Gretsiya tomonidan taklif qilingan "Yevropa uchun kun tartibi-turizm o'zgarishlariga yetakchilik qiladi." tashabbusini muhokama qildilar. Ushbu komissiyaning 69-yig'ilishida O'zbekistonnong Samarqand shahrida Buyuk Ipak yo'lida turizm bo'yicha UNWTO tematik ofisini tashkil etish ham asosiy muhokama mavzularidan biri bo'ldi. O'zbekiston hukumati Ipak Yo'lining jahon turizmini rivojlantirishdagi ahamiyatini e'torof etgan holda, Ipak Yo'lida turizmni rivojlantirishga bag'ishlangan birinchi UNWTO tematik ofisini tashkil etish taklifini ilgari surdi. Unda ushbu ulkan tashabbus O'zbekistonning turizmni barqaror rivojlanishiga intilishining yana bir ifodasi ekanligi ham ta'kidlandi.

Bosh assambleyaning 25-sessiyasi doirasida 20-oktyabr kuni Xalqaro Turizm Akademiyasining ochilish marosimi ham bo'lib o'tdi. Ochilish marosimida O'zbekiston Ekologoya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, UNWTO Bosh kotibi Zurab Pololikashvili, vazirlar va UNWTO delegatsiya rahbarlari ishtirok etdilar. Akademiya bitiruvchilari dasturga jalb qilingan hamkor ta'lim muassasalari tomonidan tan olingan sertifikatlar bilan taqdirlanadi. Bundan tashqari, talabalar har bir modulni tugatgandan so'ng xususiy sektor hamkor kompaniyalarida amaliyot o'tash orqali amaliy tajriba orttirish imkoniyatini ham qo'lga kiritadilar. O'zbekiston Turizm qo'mitasi UNWTOning Akademiyani tashkil etishdagi roli ilg'or jahon amaliyotiga asoslangan o'quv modelini yaratish, o'quv dasturlarini mahalliy sharoitlarga moslashtirish, Trenerlarni o'qitish dasturlari orqali mentorlarni tayyorlash, institutsional rivojlanishga yordam berish, talabalar faolyatini baholash, konsalting xizmatlarini taklif qilishni ham o'z ichiga oladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dushanba kuni Samarqandda ochilgan Jahon sayyohlik tashkiloti bosh assambeyasining 25-sessiyasida mamlakatlar o'rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. "Global turizmning eng dolzarb muammosi bu xavfsiz turizmni ta'minlashdir. Ta'kidash joizki, dunyo bo'ylab mojarolar va beqaror vaziyat soha rivojiga pandemiya dan ham ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatmoqda", - deya ta'kidladi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Barchaga ayonki, hozirgi kunda har bir sohaga shu jumladan turizm sohasiga ham ta'sir etayotgan oldimizda bir qancha global muammolarmiz bor. Muammolar natijasida, bizda asrlar davomida shakillangan an'anaviy sayyohlik salohiyati va sayyohlar soni kesgin kamayib bormoqda, hamda xavfsiz turizmga tahdidlar kuchaymoqda. Qadimiy me'moriy obidalar vayron qilinmoqda, hattoki ba'zilar yer yuzidan yo'q bo'lib ketmoqda. Shu kabi muammolarni oldini olish uchun "Bugungi murakkab vaziyatni inobatga olib, Xalqaro turizm sohasining mustahkam huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida Birlashgan Millatlar

Tashkiloti doirasida Xavfsiz turizmning Global kodeksini ishlab chiqishni taklif qilaman “,-dedi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Iqlim o‘zgarishi bilan “Yashil turizmni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro harakatlar dasturi” ning qabul qilinishi har qachongidan ham muhimroq deya qo‘shimcha qildi Prezidentimiz.

“Tashkilot ko‘magida yaqinda ishga tushirilgan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish Universiteti hamda Samarqanddagi “Ipak yo‘li” xalqaro universiteti bilan hamkorlikda Global yashil turizm startup laboratoriyasini tashkil etish niyatidamiz. Biz yaxshi innovatsion yechimlarni topish uchun grant mablag‘larini ajratishga tayyormiz. Biz barcha a‘zo davlatlar va Xalqaro tashkilotlarni ushbu loyihaga qo‘shilishga taklif qilamiz”,dedi Shavkat Mirziyoyev.

Imkoniyati cheklangan sayohatchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston 2025-yilni UNWTO doirasida Butunjahon inklyuziv turizm yili deb e‘lon qilish taklifini ham kiritdi.

Yana bir taklif Jahon sayyohlik tashkiloti huzurida turizm bo‘yicha tarixiy shaharlar kengashini tashkil etish bo‘ldi.

“Ushbu platforma madaniy meros obyektlarigasayyohlar oqimini ko‘paytirish, tarixiy obidalarini asrab-avaylash bo‘yicha ilg‘or tajriba almashish, zarur tavsiya va yechimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biz kengashning birinchi yig‘ilishini qadimiy Buxoroda o‘tkazishga tayyormiz “,-dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Prezident Xalqaro Turizm Akademiyasini “jahon ta‘lim markaziga” aylanishiga va jahon turizm industiyasini yanada rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishiga ishonch bildirdi. Shavkat Mirziyoyev yana Toshkentda UNWTO bilan birgalikda Butunjahon yoshlar turizmi sammitini o‘tkazishni taklif qildi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev Ipak yo‘li brendini targ‘ib qilishga qo‘shgan hissasi uchun UNWTOning maxsus xalqaro mukofotini ta‘sis etishni taklif qildi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bosh assambelayaning Samarqandda bo'lib o'tgan 25-sessiyasi doirasida bir qancha muhim masalalar ko'rib chiqildi. Hozirgi kunda bizdagi turizm sohasi bilan bog'liq bo'lgan muammolarga muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamda Bosh assambeya Bosh kotibi va boshqa tashrif buyurgan delegatlar sessiya davomida nutq so'zladilar. Albatta, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning kiritgan takliflari bu o'rinda beqiyosdir. 4 kun davom etgan Bosh assambleyaning ushbu 25-sessiyasida qator masalalar, muammolar, qizg'in muhokama qilindi. Bosh assambleya maqsadlari hisoblangan bilim almashish, hamkorlik qilish va soha duch kelayotgan muammolarga real yechimlarni taqdim etish ham ko'rib chiqildi. Aytishimiz mumkinki, aynan UNWTOning tarixiy 25-sessiyasi Samarqandda O'zbekistonda o'tkazilishi mintaqada turizmni rivojlantirish, bo'yicha mamlakatimizning turizm sohasidagi sa'y-harakatlari Jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganidan dalolat beradi. Sharq mintaqasida turizmning kelib chiqishiga to'xtaladigan bo'lsak, aynan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi bizning qadimiy, qariyb yoshi 2000 dan ziyod xisoblangan shaharlarimiz bilan bog'liq. Sharqda mavjud bo'lgan G'arbga ijobiy ta'sir qila olgan ilk o'rta asrlar sivilizatsiyasi ham aynan bizning tarixiy shaharlarmizda yuzaga kelgan. Bu borada Bosh assambleyasining tarixiy 25-sessiyasi Samarqandda o'tkazilishi yer yuzining sayqali, jamoli hisoblangan Samarqandning yana o'z qudrati, kuchi qaytayotganidan dalolat beradi.

References:

1. <https://www.unwto.org/event/general-assembly-twenty-fifth-session>
2. <https://uzreport.news/culture/samarqandda-xalqaro-turizm-akademiyasi-ochildi>
3. <https://president.uz/en/lists/view/6764>
4. <https://samshahar.uz/ru/news/16-20-oktyabr-kunlari-samarqand-shahrida-jahon-turizm-tashkiloti-unwto-bosh-assambleyasining-25-sessiyasi-otkaziladi/>
5. <https://www.unwto.org/samarkand-welcomes-tourism-leaders-to--25th-unwto-general-assembly>